

ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” ASARI MAZMUNI

Tohirova Umida Akramovna

BuxDU o'qituvchi

Annotatsiya: *Turkiy xalqlarning “shams ul-millat” bo'lgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini o'zining hassos she'riyati, buyuk “Xamsa”si, fan sohalarining turli tarmoqlariga bag'ishlangan boy ilmiy merosi bilan boyitgan so'z san'atkoridir. O'z ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lug'at boyligidan foydalangan bu buyuk daho mana besh asrdan oshibdiki, asarlaridagi chuqur falsafiy mushohadakorlik, ma'nomohiyatning keng ko'lamdagi va nazmiy merosidagi fasohat dengizining bepoyonligi bilan jahon ahlini hayratga solib keladi.*

Kalit so'zlar: *“Xamsa”, “Farhod-u Shirin”, nazm, doston, “Lison ut-tayr”*

Аннотация: *Низамиддин Мир Алишер Навои, являющийся «шамс ульмиллат» турецких народов, художник слова, обогативший сокровищницу мировой литературы своей чуткой поэзией, своей великой «Хамсой», своим богатым научным наследием, посвященным различным области науки. Этот великий гений, использовавший в своем творческом наследии более 26 000 слов лексики, уже более пяти столетий удивляет людей мира глубокой философской наблюдательностью в своих произведениях, безбрежностью моря красноречия в его поэтическое наследие.*

Ключевые слова: *«Хамса», «Фархад и Ширин», поэма, эпос, «Лисон ут-тайр».*

Abstract: *Nizamiddin Mir Alisher Navoi, who is the "shams ul-millat" of the Turkic peoples, is a word artist who has enriched the treasure of world literature with his sensitive poetry, his great "Khamsa", and his rich scientific heritage dedicated to various fields of science. This great genius, who used more than 26,000 words of vocabulary in his creative heritage, has been surprising the people of the world for more than five centuries with the deep philosophical observation in his works, the vastness of the sea of eloquence in his poetic heritage.*

Key words: *"Khamsa", "Farhad and Shirin", poem, epic, "Lison ut-tayr"*

Alisher Navoiyning “Foniy” taxallusi bilan bitilgan «Lison ut-tayr» asari o‘zbek adabiyoti, qolaversa, jahon adabiyotining ham eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Binobarin, bu asarning o‘zbek adabiyotida ham, jahon so‘z san‘atida ham alohida o‘rni bor. “Lisonu-t-tayr” dostoni falsafiy-tasavvufiy mavzuda yaratilgan bo‘lib, ulug‘ fors-tojik adibi Farididdin Attorning “Mantiq-u-t-tayr” dostoniga javoban yozilgan. Alisher Navoiyning o‘zi shu dostonida bolalik davridayoq “Mantiq-u-t-tayr”ni ishtiyok bilan o‘qiganligi va yod olganligini aytadi:

Yodima mundoq kelur bu mojaru,

Kim tufuliyat chog‘i maktab aro.

Kim chekar atfol marhumi zabun,

Har tarafdin bir sabaq zabtig'a un...
Manga ul holatda tab'i bulhavas,
"Mantiqu-t-tayr" aylab erdi multamas.
Topti sokin-sokin ul takrordin,
Soda ko'nglum bahra ul guftordin.
Tab' ul so'zlarga bo'lg'och oshno,
Qilmadi mayl o'zga so'zlarga yano.

"Lisonu-t-tayr" dostoni an'naviy tarzda Muqaddima, asosiy qism va Xotimani o'z ichiga oladi. Muqaddima 13 bobdan iborat.

Dostonning birinchi bobi Alloh Hamdiga bag'ishlangan. Navoiy Alloh bu olamni aniq bir reja asosida bunyod qilganligi haqida yozar ekan, unda hech bir narsa tasodifiy yaratilmaganligini aytadi. Allohning mo'jizasi sifatida bir-biriga zid bo'lgan to'rt unsur (suv, olov, tuproq va havo)ni inson vujudida bir butun holda birlashtirganini ta'kidlab, butun olamni yaratishdan maqsad ham inson ekanligini aytadi:

Uylakim dushman yaratib o'tqa suv,
Yelni ham tufroqqa aylab aduv.
Sun'idin ko'rgilki mundoq to'rt zid,
Bo'lub inson xilqatida muttahid.
Ofarinishdin qilib inson g'araz,
Oni aylab xalq ichinda beevaz.

Bobda, shuningdek, Alisher Navoiy Alloh insonni o'z siridan xabardor qilib, xalifalik toji bilan yuksaltirdi, shaytonni esa unga sajda qilishdan bosh tortgani uchun mardudu la'in (rad etilgan va la'natlangan) qildi, deydi:

Ham qilib o'z sirri birla ganji roz,
Ham xilofat birla aylab sarfaro.
Bo'ldi sarkashlikdin oning ofati,
Ajzu tufrog'liq bu birning rofati.
Birga ul masjidlug' bergan o'zi,
Birga bu mardudlug' bergan o'zi.

Dostonning 2-bobi munojotni o'z ichiga oladi. Bobda Alisher Navoiy o'tgan umrini sarhisob qilar ekan, Yaratgan qoshida o'zini behad gunohkor deb hisoblaydi:

Alloh, Alloh, o'lturur sharmandaliq,
Yodima kelsa bu yanglig' bandaliq.
Yuz qarolig' oncha bo'lmish jahl aro,
Kim ko'zimga qildi olamni qaro.
Qilmadim umrumda bir rak'at namoz,
Sar-basir mahzi niyoz, ey beniyoz.
Hargiz andoq qo'ymadim tufroqqa bosh,
Kim keraklik bo'lmag'ay boshimg'a tosh.
Bermadim hargiz gadog'a bir diram,

To o'zumni ko'rmadim sohib karam.
Tutmadim oting qilib farzonaliq,
Sabha eldin osmayin yuz donaliq.
Bir amal hargiz riyosiz qilmadim,
Zarqsiz hargiz o'zumni bilmadim.
O'ylakim mendurmen inson bo'lmasun,
Yo'qki inson – devu shayton bo'lmasun.

3-bob payg'ambar Rasuli akram madhi – na'tni o'z ichiga oladi. Bobda Navoiy “Nuri Muhammadiya” haqida fikr yuritar ekan, bu nur olam yaratilishidan ham ilgari mavjud bo'lganligini, Odam Atodan Shis payg'ambarga va shu orqali ko'plab nasllarga o'tib, rasuli akramning otalari Abdullohga yetib kelganligi va nihoyat uning farzandi chehrasida payg'ambarlik nuri sifatida zohir bo'lganligini yozadi.

Bobda shuningdek, Rasuli akramning payg'ambarlik davrlaridagi faoliyatlari: kofirlarga qarshi kurashganlari, Lot butining holini xarob qilganlari, xalqqa Allohdan boshqa iloh yo'qligi haqidagi haqiqatni yetkazganliklariga to'xtalib o'tiladi. Bob so'ngida Rasuli akram va ular orqali barcha yaqinlari: sahoba va tobeinlar ham pok ekanliklari aytilib, ularga salom yo'llanadi:

O'zi pok, azvoj ila avlodi pok,
Zoti pok, as'hob ila ahfodi pok.
Anga har dam yuz durudu ming salom.
Olam ahlidin ila yovmul qiyom.

4-bob me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlangan. Unda payg'ambarimizning huzurlariga “Ruhu-l-amin” (Jabroil farishta) kelib, Yaratganning xabarini yetkazgani va rasuli akramning Buroq otini minib, Alloh huzuriga ko'tarilganliklari, oradagi yetmish qavat parda ko'tarilib, bor-yo'q to'siqlar bartaraf bo'lganligi, payg'ambarimiz Allohdan ummatlarining gunohini so'raganliklari va Alloh o'z habibining barcha istaklarini qabul qilgani haqida fikr yuritiladi.

Dostonning 5-bobi to'rt xalifaning birinchisi Hazrat Abu Bakr Siddiq madhiga bag'ishlangan. Alisher Navoiy bu zotni “sodiqu siddiq” deb atab, tashbeh san'ati vositasida payg'ambarimizni g'or ichidagi xazinaga, Abu Bakr (r.a)ni esa shu xazinani qo'riqlab yotgan ajdahoga o'xshatadi:

Sodiqu siddiqu hamrozi oning,
Har yomon-yaxshida damsozi oning...
Ganjkim g'or ichra pinhonlik qilib,
Ajdahodek ul nigahbonlik qilib.

Abu Bakr Siddiqning payg'ambarimizdan keyin xalifa imom bo'lib qolganliklarini go'yo quyosh ketib, oy qolganligiga nisbat beradi:

O'rnig'a oni rasul aylab imom,
Oy bo'lib xurshidg'a doim maqom.

6-bob Hazrat Abu Bakr Siddiq haqidagi hikoyatni o'z ichiga oladi. Hikoyatda aytilishicha, Abu Bakr Siddiq xalifalik taxtiga o'tirganlarida dindan qaytgan bir guruh kishilar islom farzlaridan biri bo'lgan zakotni bekor qilishni talab qiladilar. Shunda xalifa g'azab bilan: "Payg'ambar qonunida biror ip miqdoricha narsani ham o'zgartirish mumkin emas. Kimki bunga qarshi bosh ko'tarsa, ularga javob qilich va o'qdir" deb aytadilar.

Dostonning 7-bobi Hazrat Umar Foruq madhiga bag'ishlangan. Alisher Navoiy islom olamida haqni xatodan farq qilishda bu kishiga teng keluvchi boshqa inson yo'q edi, deydi:

Haqni botildin birovkim qildi farq,
Adli birla ravshan yetti g'arbu sharq.
Ondin o'zga yo'q edi ofoq aro,
Balki ushbu qasri oliy toq aro.

8-bob Hazrat Umar Foruqqa bag'ishlangan hikoyatdan iborat. Hikoyatga ko'ra, Hazrati Umar Madoyinni egallaganlarida, juda katta xazina yig'iladi. Hazrati Umar bu xazina va mol-mulkka qo'z qirlarini ham tashlamaydilar: barcha xazinani g'azotga chiquvchilar uchun bo'lib berishni buyuradilar.

9-bob – Hazrat Usmon (r.a.) madhidadir. Hazrat Usmon payg'ambarimizning ikki qizlariga uylanganliklari uchun "zunnurayn" laqabini olganlar. Alisher Navoiy bu zotni Qur'oni Karimni to'plaganlari sabablari xalq Usmon ibn Affon deb atadi deydi:

Tengri aylab jome'i "Qur'on" oni,
Xalq deb Usmon bin Affon oni.

10-bob Hazrat Usmon haqidagi hikoyatni o'z ichiga oladi. Hikoyatga ko'ra, payg'ambarimiz bir kuni eldan farog'at istab, xilvatga kirib, bir oyoqlarini uzatib o'tiradilar. Ularning huzurlariga ba'zi zodagon sahobalar, ayrim aziz va sharif kishilar kirganlarida ham ularning holatlarida o'zgarish bo'lmaydi. Lekin xonaga hazrat Usmon kirgach, rasuli akram uzatgan oyoqlarini yig'ib oladilar. Bu payg'ambarimizning hazrat Usmonga bo'lgan cheksiz hurmatlari ifodasi edi.

11-bob mo'minlar amiri Hazrat Ali (r.a) madhiga bag'ishlangan. Navoiy bu zotning payg'ambarimizga farzand darajasida bo'lganliklarini aytib, ular orasida "men senikiman, sen menikisan" degan ahd mavjudligiga ishora qiladi:

Anbiyo sarxayliga farzand ul,
Xayli odam ichra bemonand ul...
Ittihodida nubuvvat sham'ining
So'zi bukim sen meningsen, men sening.

12-bob Hazrat Aliga bag'ishlangan hikoyatni o'z ichiga oladi. Hikoyatga ko'ra, g'azot janglaridan birida Hazrat Aliga o'q tegadi. O'qning uchi ularning suyaklarigacha botib, tortib olishning iloji bo'lmaydi. Shunda sahobalar payg'ambarimizdan bu ishning chorasini so'raganlarida, rasuli akram "U namoz o'qiyotgan paytda o'qni tortib olish payida bo'lingiz. U namozga shunday berilgan bo'ladiki, o'qni tortib olganlaringni

bilmay qoladi”, — deydilar. Sahobalar aytilgandek qiladilar va Alloh kushoyish berib, bir lahzada jarohatdan na dardu na o‘q uchi qoladi.

13-bob buyuk forsigo‘y adib Farididdin Attor madhiga bag‘ishlangan. Alisher Navoiy so‘z o‘yini vositasida shoir taxallusiga majoziy nisbat berib, bu do‘konda olamdagi barcha boyliklar: duru gavharlar, gulobu mushki anbarlar, shirinliklar jam‘ ekanligini aytadi:

Har ne gardun bahr ila konida bor,
Oncha yuz Attor do‘konida bor.

Alisher Navoiy Attorning yozgan asarlari xalq uchun gulqand kabi foydalidir deydi va shu munosabat bilan uning asarlari ro‘yxatini keltiradi: “Musibatnoma”, “Ilohiynoma”, “Ushturnoma”, “Lujjai hilol”, “Tazkiratu-l-avliyo”, “Mantiq-t-tayr” va boshqalar. Bob so‘ngida Navoiy agar Haq madad bersa, mendek gado Shayx ruhidan yordam olib, qushlar nutqini izhor qilsam, ya’ni “Mantiq-t-tayr”ga javob yozsam deydi:

Lek haq tavfiq bersa, men — gado,
Shayxning ruhig‘a aylab iqtido.
O‘yla qushlar nutqini izhor etay,
Bulbulu to‘ti kibi g‘uftor etay.
Kim xaloyiq chun tarannum aylagay,
Qush tili birla takallum aylagay.
Lek surmak nuktani to‘ti misol,
Budur insof o‘lsa, ey farxunda fol.
Kim bu to‘ti to‘masi bo‘lg‘oy shakar,
Ul shakar fikr aylasang bo‘lg‘ay magar.
Tengrining lutfu inoyat xonidin,
Ya’ni, ul Attorning do‘konidin.

Dostonning asosiy qismi 14-bobdan boshlanadi. Bir kuni barcha qushlar majlis qurmoq uchun yig‘ilibdilar. Lekin majlisda o‘rin talashib, janjallashib qolibdilar. Shunda ular agar bir adolatli podsho bo‘lganda, bahsga hojat qolmagan bo‘lard, deb o‘ylabdilar. Shu vaqt Hudhud degan qush shunday podshoh borligini, uning nomi Simurg‘ ekanligi va Simurg‘ning huzuriga bormoqchi bo‘lganlar uzoq hamda mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tishlari zarurligini aytadi:

Borcha olam qushlariga shoh ul,
Holingizdin mo‘-bamo‘ ogoh ul.
Ul yoqin sizga-yu siz ondin yiroq,
Vasl – anga oyin, vale sizga – firoq.
Yo‘lida yetsa talabdin ming taab,
Ham anga yetmas kishi qilmay talab.
Lekin ul vodiy nihoyatdin uzun,
Qat’ida ofat nihoyatdin fuzun.

Umrlar urmoq kerak tinmay qanot,
Necha karkas umricha bo'lsa hayot.

Qushlar Hudhud boshchiligida yo'lga tushadilar. Bir necha kun yo'l yurgach, mashaqqatli safar ularni toliqtiradi. Ular ortga qaytmoqchi bo'ladilar va birin-ketin Hudhudga o'z uzrlarini ayta boshlaydilar. Dastlab To'ti uzr aytadi. Hudhud unga javoban "Hiylagarlikni kasb qilgan yashil chakmonli kishi" bilan bog'liq hikoyatni keltiradi. To'tidan so'ng Tovus uzr aytib, "Tangri meni atrofdagilar ko'rib, husnimga tahsin aytishlari uchun yaratgan, shunday ekan, menga bu safardan ne hojat", — deydi. Hudhud unga javoban masxaraboz bir hinduning o'zini turli naqshu nigorlar bilan bezab, maydonda tomosha ko'rsatgani, uning atrofi bir gala beboshlar to'dasi bilan to'lgach, nazoratchilar tomonidan tutib olinib, darra bilan savalangani haqidagi hikoyatni keltiradi. Undan so'ng Bulbul uzr aytadi. U o'z chamanidagi bir gulga oshiqligini, guldan ayriliqqa chiday olmasligi va bu safar unga cheksiz hajr azobini olib kelayotganligini bayon qiladi. Hudhud unga bir podshohga oshiq bo'lib qolgani haqida lof urgan gado hikoyatini keltiradi. Shu tariqa Qumri, Kabutar, Kabki dariy (Tog'kakligi), Tazarv, Qarchig'ay, Shunqor, Burgut, Kuf (Boyo'g'li), Humoy, O'rdak, Tovuq (Xo'roz) kabi qushlar o'z uzrlarini aytadilar. Hudhud ularning har biriga mos holatda turli hikoyatlar bilan javob qaytaradi. Qushlar yo'llarida davom etadilar. Ular Hudhuddan Simurg'ga yetishish yo'li haqida so'raydilar. Hudhud ularga dostonidagi eng katta va alohida mavqega ega bo'lgan "Shayx San'on" haqidagi hikoyatni so'zlab beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, "Lison ut-tayr" falsafiy doston bo'lib, Navoiy turli majoziy obrazlar, qahramonlarning sarguzashtlari orqali tasavvuriy g'oyalarni aks ettirgan. Shoir asarda Xudodan tashqarida emas, sening o'zingda, degan fikrni ilgari suradi. Shu yo'sinda insonni ulug'laydi, uning kamolotga erishish yo'lini yuksak she'riy mahorat bilan bayon etadi. Asarning barcha g'oyasi odamning tarbiyasini ko'rsatishga qaratilgan.

АДАБИЁТЛАР:

1. Навоий Алишер. Лисонут тайр. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1994. 12-жилд.
2. Navoiy Alisher. Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan). – Т.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005.
3. Лисонут тайр (насрий баёни билан). Тахрир хайъати: А.Қаюмов ва бошқ. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
4. Н.Комилов. Тасаввуф. –Т.: Movarounnahr – O'zbekiston, 2009.
5. Бертельс Е.Э. Навои и Аттар / Суфизм и суфийская литература. – М.: 1965. – С.377-421.

6. Имомназаров М. Ҳақиқат ва мажоз (2-3-мақолалар) // Шарқ юлдузи. – Т., 1989. — № 4; 1991. — № 4.
7. Олимов С. Ишқ, ошиқ ва маъшук. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1992.
8. Шарипов Ш. Алишер Навоий “Лисонут тайр” достонининг генезиси ва ғоявий-бадиий хусусиятлари. – Т.: Фан, 1982. – 96 б
9. Шарипов Ш. “Лисонут тайр” ҳақиқати. – Т.: Маънавият, 1998.
10. Мамадалиева З. Лисон ут-тайр” достонидаги рамзий образлар тизими. Филол.фан.номз.дисс. – Т., 2011
11. Акромовна Т. U. Jahon adabiyotida ilmiy-fantastika janri va yo'nalishlari //the journal of integrated education and research. – 2023. – С. 112.
12. Tohirova U. A. The description of image in H. Shaykhov's works //Студенческий вестник. – 2021. – №. 8-3. – С. 52-54.